

SAID AHMAD ASARLARIDA ANTROPONIMLARNING QO'LLANILISHI

Zuhraxon Mirzaqodirova

NamDU filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Said Ahmad hajviy asarlarida antroponimlar (kishi ismlari va laqablar) ning qo'llanilishi haqida fikr bildiriladi.*

Kalit so'zlar: *Antroponimlar, antonomatsiya, hajv, komediya, laqab*

Аннотация *В данной статье высказано мнение об использовании антропонимов (личных имен и прозвищ) в произведениях Саида Ахмада Хаджви.*

Ключевые слова: *Антропонимы, антономы, комедия, прозвище, существительное.*

Annotation: *This article presents an opinion about the use of anthroponyms (personal names and nicknames) in the comic works of Said Ahmad.*

Keywords: *anthroponyms, antonyms, comic comedy, nickname, noun.*

O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmadning boy ijodiy merosi o'zbek nasr adabiyoti tarixida alohida ahamiyat kasb etadi. Adib o'zining barakali umri davomida samarali ijod qildi. Yozuvchi o'z asarlari orqali o'zbek romanchiligi, qissachiligi, hikoyachiligi va kulgi adabiyoti tarixida o'chmas is qoldirdi. Said Ahmad va uning zamondosh adiblari Asqad Muxtor, Shukurullo, Hamid G'ulom XX asr o'zbek adabiyoti tarixida alohida maktabni tashkil etadi.

Said Ahmad o'zbek romanchiligi, qissachiligi, hikoyachiligi va dramaturgiya sohlarida birdek samarali ijod qildi. Uning adabiyotimiz xazinasini boyitish va durdona asarlar son va salmog'ini oshirish yo'lidagi xizmatlari Mustaqillik yillarida chuqur hurmat bilan e'tirof etildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 2-martdagi " 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining " Ilm- ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" da amalga oshirishga old davlat dasturi to'g'risida"gi PF - 5953- sonli farmonining D-D - 226- bandida o'zbek xalqining ardoqli farzandi-buyuk yozuvchi Said Ahmad tavalludining 100 yilligini mamalkat miqyosida keng nishonlash, hayot va ijod yo'liga bag'ishlab zamonaviy teatr repertuarlarini namoyish etish, kitoblarini nashr etish va " Zamondoshlari xotirasida" turkumidagi kitoblar chop etish ko'zda tutilgan edi.

Said Ahmad ijodida yumoristik ruhda yaratilgan asarlari alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulug' adib bu xildagi asarlari uchun kulgi hosil qiluvchi vosita sifatida turli xil til birliklaridan unumli foydalangan. Ayniqsa, ijodkor antroponimlardan foydalanish orqali qahramonlar xarakteriga mos jihatlarni yoritib bergan..

Tilshunoslikda atoqli otlarning badiiy matnda alohida maqsadlar bilan ishlatish antonomatsiya deyiladi. Said Ahmadning " Kelinlar qo'zg'oloni", " "Qoplön", " Qorako'z Majnun" singari asarlarida kishi nomlari va laqablari qahramon ichki dunyosini ko'rsatib berish uchun vosita bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

Xalqimizda juda qadimdan beri qo'llanib kelinayotgan laqablar bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Kundalik turmushda insonlar bir-biriga laqablar orqali murojaat qilayotganiga guvoh bo'lamiz. Laqab arabcha so'z bo'lib, biror xususiyatga ko'ra berilgan ikkinchi nom, shuningdek, laqab o'z egasining biror jismoniy, aqliy, ruhiy, iste'dodi va kasbi odamlar orasida o'zini tutishi, biror ijobiy yoki g'ayritabiiy harakatiga ishora qiladi. Taniqli o'zbek tilshunosi E. Begmatov o'zining " O'zbek tili antroponomikasi" nomli kitobida antroponimlarning asosiy kategoriyasi deb ismlarni, qo'shimcha nominativ kategoriya deb esa laqab, taxallus, familiyalarni keltirib, laqablarning ham atoqli ot ekanligini ta'kidlab o'tadi. Ismlar insonlar tug'ilgan paytida yaqinlari tomonidan qo'yilsa, laqablar hayot faoliyati davomida boshqa shaxslar tomonidan beriladi.

Said Ahmad " Kelinlar qo'zg'oloni" komediyasida asarga milliy harorat berish va personaj tabiatini yoritib berishda kishi ismlari va laqablariga alohida ahamiyat berdi. Masalan, Farmon bibi o'z uyida o'zi qonun chiqarib, bajarilishini nazorat qiladigan qaynona. U o'z uyida ellik olti kishiga bosh, ya'ni yetti o'g'il, yetti jelin, qirq bir nevara, o'zi bilan ellik olti kishini boshqarib, ularni qovushtirib turadigan shaxs. Shuning uchun ham uni mahalladagilar " Marshal" kampir, shaharda esa " General" kampir deb chaqiradilar. Farmon bibi haqiqatdan ham generallardek qattiqqo'l, talabchan qaynona. Shuning uchun ham yetti o'glini ayol va farzandlari bilan birga bir qo'rg'on atrofida saqlab tura oladi. Bugun biz guvohi bo'lib turgan bir uyda ikki ovsin hech ham chiqisha olmaydigan, kun ora janjallashib turadigan va natijada oiladagi, aka-uka, ona-bola orasidagi munosabatlar yomonlashadigan oilalarga bu qahramonning xarakteri o'rnak bo'lishi mumkin. Uning kelinlari ham asarda turli xarakterga ega bo'lgan kelinlardir. Farmon bibining o'ng qo'li bo'limish Sottiga ovsinlari tomonidan ayg'oqchilik odati borligi uchun " Shpion" deb laqab qo'yilgan. Farmon bibining o'zi esa doim pildirab yuradigan kelini Muhayyoga " g'ildirak" , " multfilm" deb nom qo'ygan:

(Muhayyo uyi tomon pildirab keta boshlaydi.)

Farmon: Hoy, how g'ildirak. Qayoqqa?

(Muhayyo eshitmagan bi'lib uyga qaraydi.)

Farmon: Hoy g'ildirak, hoy multfilm. Sizga aytyapman. Quloqni Tom bosganmi?

Muhayyo: (noiloj to'xtaydi) Nima deysiz, oyijon?

Farmon: Bu yoqqa keling, qoqindiq. Bo'ylaringizdan o'rgilay, yaqinroq keling. Karmonni oching, girgitton. Nima bo'lsa, hammasini soching, qoqindiq. [Said Ahmad, 1976. 13-bet]

Umuman olganda, o'zbek komdeiya janrida ism bilan bog'liq qarashlar chuqur tahlilni talab qiladi. Masalan, Erin Vohidovning " Oltin devor" asari qahramoni Mo'min ham ismi-jismiga monand juda ham mo'min- qobil kishi sifatida tasvirlansa, Abdulla Qahhorning " Og'riq tishlar" komediyasi qahramoni Oqila ham alliance dono ayol bo'lib, asar kompozitsiyasida alohida o'rin egallaydi .

Said Ahmad o'zining o'tkir ruhdagi hajvlari bilan adabiyotimiz darg'alaridan biriga aylandi. Ulug' adib hatto asar qahramonlariga munosib nom va laqab qo'yish orqali ham kulgi yarata olush mahoratiga ega ijodkor bo'lgan.